



2024-yil. 4-sod

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

Navro'zi olam muborak bo'lsin!





ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'lqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Aljon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova
Yuldush Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
Bibimaryam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilaadabiyotuz@gmail.com



M U N D A R I J A

DOLZARB MAVZU

- Qodir Oqilov.** Umumta'limga maktablari boshqaruvini takomillashtirishning dolzarb masalalari..... 3
Amonkeldi Axmatov. Buxoro adabiy muhiti tarixiga chizgilar..... 7

TADQIQOT

- Nilufar Ochilova.** Metaforaning ingliz va o'zbek ilmiy matnidagi roli..... 10
Bahrom Iskandarov. Badiiy tarjima xususiyatlari..... 13
Gulmira Zulaypoyeva. Uslub va muallif uslubi (idiostil) tushunchalariga doir qarashlar..... 15
Namuna Nazarova. Sirojiddin Sayyid ijodida chopon so'zining badiiy ifodasi..... 17
Feruza Qurbonova. XX asr ijodida falsafiy roman taraqqiyoti..... 19
Abduvahob Zaripov. Avtobiografik asarlarning gnoseologik tadqiqi..... 23
Shohsanam Muhammadiyeva. O'simlik dunyosiga oid iboralarning ingliz tilidagi tasnifi..... 26
Fazliddin Sadinov. Anatomiq terminlar ishtirokida hosil bo'lgan ayrim veterinariya birikma terminlari xususida..... 27
Dilobar Normuminova. Ona tili darslarida og'zaki nutq malakasini rivojlantirish..... 30
Rajabboy Abdiyev. "Ot kishnagan oqshom" qissasida qo'llanilgan otlarga doir maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari..... 32
Zuhra Axmedova, Mashxura Saparboyeva, Gulbarchin Batirova. Maktabgacha ta'limga tizimida alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga yo'naltirishda oila va ta'limga tashkilotlar hamkorligi..... 36
Feruza Atamurodova. Origin of the novel in european literature..... 38
Sardor Nazarov. Syntactic and semantic analysis of word combinations in englishlanguage..... 40
Sarvinoz Kuvandikova. Borrowings from the english language into uzbek banking terminology..... 43
Nilufar Turdiyeva, Bobojon Mamatkulov. Types of context and features of expression or non expression i /you- deixis in english..... 45
Xilola Maxmudjonova, Gulafro'z Botirova. Importance of artificial intelligence in english language learning..... 46
Сурайё Акрамова. Экологические проблемы в романе Чингиза Айтматова «Плаха»..... 49
Елена Шевченко, Зулайхо Низомитдинова. Основные характеристики лиризма в художественной прозе..... 51
Умида Юлбарсова. Использование социальных сетей при обучении русскому языку как иностранному..... 53
Шоира Хашимова. Мотив игры в романе Джона Фаулза «Куколка»..... 55
Гулчехра Мусаджанова. Взгляд на жизнь и деятельность Захириддина

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-soni qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>

Dilobar NORMUMINNOVA

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti Ona tili ta'limi kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA OG'ZAKI NUTQ MALAKASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: og'zaki muloqot ko'nikmasi mashq va topshiriqlar yordamida rivojlanadigan asosiy ko'nikmalardan biridir. Maqlada ushu ko'nikmani rivojlantirishning zaruriy asosi va uni rivojlantirish uchun foydali bo'lgan usul va topshiriqlar keltirilgan. Ushbu kichik tadqiqot o'quvchilar uchun to'g'ri nutqi vaziyatlar yaratish va u ustida turli test turlari orqali ishslash og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirishini isbotlash uchun o'tkazildi. Maqlada tadqiqot xulosalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *nutq, og'zaki nutq, nutq ko'nikmalar, ravonlik, artikulatsiya.*

Annotation: oral communication skills are one of the main skills that can be developed through exercises and assignments. The article presents the necessary basis for the development of this skill and useful methods and tasks for its development. This small study was conducted to prove that creating the right speaking situations for students and working on it through different types of tests can improve their speaking skills. The article highlights the conclusions of the research.

Key words: *speech, speaking, speaking skills, fluency, articulation.*

Аннотация: навыки устного общения являются одним из основных навыков, которые можно развивать с помощью упражнений и заданий. В статье представлены необходимые основы для развития этого навыка и полезные методы и задания для его развития. Это небольшое исследование было проведено, чтобы доказать, что создание правильных разговорных ситуаций для студентов и работа над ними с помощью различных типов тестов могут улучшить их разговорные навыки. В статье освещены выводы исследования.

Ключевые слова: речь, говорение, разговорные навыки, беглость речи, артикуляция.

Og'zaki muloqot ko'nikmalari nafaqat ta'limda balki ijtimoiy hayot faoliyatida ham eng zarur bo'lgan ko'nikmalardan biridir. Eshitgan ma'lumotlarni tushunish unga javoban fikrlarni aniq ifodalashlari, o'z qarashlarini isbotlab dalillar bilan himoya qilaolishlari, to'g'ri savol berib javob bera olishlari kerak. Tinglash va gapirish ko'nikmalari ularning jamiyatda, oilada o'z fikrlarini ifodalash uchun muhim bo'lgan hayotiy ko'nikmalar hisoblanadi. Axborot asri o'sib borar ekan o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatlari ularning nutq va tinglash qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Og'zaki nutq boshqa til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

Nutq orqali o'quvchilar diqqatni jamlashni va fikrashni tartibga solishni o'rganadilar. Og'zaki nutq va nutq qobiliyatlari tug'ma va deyarli tabiiy ravishda yuzaga keladi, ammo bu ko'nikmalarni egallahshi anglatmaydi. "Ona tili darslarida og'zaki muloqotga alohida e'tibor qaratish shartmi?" degan fikr o'yantirishi mumkin, chunki inson o'z ona tilida og'zaki nutq malakasi avtomatik tarzda shakllanadi deb qaraladi. Ammo barcha o'quvchilar ham o'z fikrlarini aniq va lo'nda ifodalab beraolmaydilar.

Ushbu kichik tadqiqot turli usul va mashqlar orqali og'zaki muloqot rivojlanadimi degan savolga javob topish uchun olib borildi. Asosiy e'tibor o'quvchilarning nutqini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlarga qaratildi. Turli xil nutqi topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning nutq qobiliyatlarini oshirishi mumkin.

Og'zaki nutqni rivojlantiruvchi samarali usullar: o'quvchilarning so'z boyligi, talaffuzi va grammatik bilimlarini shakllantirish, turli kommunikativ nutq vazifalarini qo'llash, o'quv jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, o'quvchilarning ishlariga baho berish va fikr bildirish, lingvistik shakllardan ma'no uchun foydalanish qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilar kimdandir oldindan eshitgan ertak yoki hikoyani qisqacha bayon qilishlari, topishmoq va hazillarni ham aytishlari, turli xil vaziyatlarga mos rolli o'yinlar dialogik nutqi vaziyatlar yaratishlari, fakt va fikrlar o'yini va dars jarayonida munozaralar olib borish.

Ona tili darslarida og'zaki nutq uchun alohida mashg'ulotlar ishlab chiqilishi zarur. Bunda birinchi navbatda bolaning o'z fikrini lisoniy vositalar yordamida to'g'ri ifodalash, mavjud lug'at boyligidan oqilona foydalanish, bir mavzudan chetga chiqmay gapirishi, nutqni to'g'ri strukturalashtirish, ya'ni mavzuga kirish, asosiy fikrni aytish, xulosalash, aytadigan gapi eshituvchiga qanday ta'sir qilishini oldindan baholay olish, tinglovchinga diqqatini ushlab turish kabi ko'nikmalar shakllantirilib, takomillashtirilib borishi zarur.[I.Azimova. 2020.55-b]

Ona tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar.

Kichik guruhlarda ishlang. O'z fikringizni sabablar bilan qo'llab-quvvatlang. Quyidagi vaziyatdan kelib chiqib, o'z mulohazalarining taqdim eting. "Shahardagi hayot qishloqdagi hayotdan yaxshiroq"

Ushbu fikrga kirish nuqtayi nazaridan bahslashing.

Guruhrilar bilan ishslash. Reklamalarni tinglang. Guruhlarga bo'linib xarid qilishingiz kerak bo'lgan narsalar ro'yxatini tuzing. Qaysi brendlarni sotib olishingizni nomma nom yozing. Iloji bo'lsa ro'yxatingizdagi har bir mahsulotni tavsiflash uchun reklama tasviri yoki shiori va biron bir fakt ni yozib qo'ying.

Eslatma: reklamada e'tiboringizni nima jalg qilishi va u sizga qanday ta'sir qilishiga ahamiyat bering. Qanday qilib reklama odamlarning mahsulot xarid qilishi haqidagi his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishiga e'tibor bering. Ba'zi reklama shiorlari qanday qilib xotirangizda tez saqlanib qolganiga e'tibor bering.

Savollarga og'zaki javob bering.

1. Reklamaning qaysi elementlari mahsulot xarid qilishingizda ko'proq ta'sir qiladi.

2. Guruh a'zolariga hozirgina eshitgan reklama tanlov qilishiga qanday ta'sir qildi.

3. Mahsulotlarni xarid qilayotganingizda reklama yoki faktlarga tayanasizmi?

Telefon orqali muloqot qilish.

Bu topshirig'imizda ham guruhrilar bilan ishlaymiz sababi bu bizga yangi bilimlar egallashimizga yordam beradi. O'quvchilarni guruhlarga bo'lib olib vaziyatlardan birini taqdim etamiz. Ular dialogik nutqni yozib olib rollarga bo'linib ijro etadilar.

Eslatma: sizni tinglayotgan odamga aniq va lo'nda gapiring. Avval o'zingizni tanishtiring. Raqamli ma'lumotlarni aytayotganda ovoz ohangini sekinlashtiring. vaziyatga mos keladigan ohangdan foydalaning.

Vaziyatlar:

- yong'in haqida xabar berish uchun 1050 raqamiga qo'ng'iroq qilgan kishi;
- yo'qolgan bank kartasi haqida tegishli bank ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilgan kishi;
- sindoshlar bayram tadbirini o'tkazish uchun joy band qilish maqsadida telefon qilish;
- online mahsulot xarid qilayotgan kishi suhbati;
- do'stingizni tug'ilgan kunga taklif qilmoqchisiz, telefoningizni ko'tarmadi. Signaldan so'ng xabar

goldirishingiz kerak.

Savollarga og'zaki javob bering.

1. Ishbilarmonlik yoki shaxsiy bo'lmagan vaziyatlarda ishlatiladigan ohang do'stlarga qo'ng'iroq qilishda foydalaniladigan ohangdan qanday farq qiladi?

2. Nima uchun telefon suhbatlarida ovoz ohangi muhim?

Quyidagi audioni tinglang. Undagi eng muhim eslatmalarini yozib boring.

Eslatma: asosiy fiklarga e'tibor qarating. Ovoz ohangidan biror narsaning asosiy g'oya ekanligini ko'rsatuvchi signallarni belgilang. Batafsil yozmang aks holda yaxshi tinglay olmaysiz.

Savollarga og'zaki javob bering.

1. Eslatmalaringiz qanchalik to'liq va tushunarli edi?

2. Eslatmalaringizni tushunishga yordam berishi uchun ovozingiz va imo-ishoralardan qanday foydalandingiz?

3. Guruh a'zolaridan kimning eslatmalari tushunarli edi? Nima uchun?

Bu kabi topshiriqlar bilan ishslash dars jarayonlarini qiziqarli olib borish uchun ham yordam beradi. Topshiriqlar asosan o'quvchilarni mustaqil fikrashga undaydigan, undan o'zining shaxsiy qarashlarini talab qiladigan qilib tuzilgan. Bu shakldagi topshiriqlar o'quvchilar oldindan bilgan, ma'lum bir tushunchasi bo'lgan mavzularga o'z munosabatlarini ifodalashga yordam beradi. Nutqini rivojlantirish maqsadida kundalik hayotida muhim bo'lgan voqealar tanlangan. Nutqning turli qirralariga e'tibor qaratadilar. Fakt va fikrning farqiga borib, o'z nuqtayi nazarlarini izohlay oladilar. Fikrini dalillab asosli ekanligini isbotlay olishadi. Bu topshiriqlarni o'quvchilarda qo'llash orqali o'quv jarayonidagi faoliyat oshdi, guruhlarda ishslash bilan ular o'rtoqlari bilan fikr almashib, yangi bilimlar egalladilar va bu ularning nutqini yanada qiziqarli qildi. Bu og'zaki nutqni rivojlantirish bilan bog'liq topshiriqlarning mumkin bo'lgan natijalaridan faqat ba'zilari.

Foydalilanigan adabiyotlar

I.Azimova, 2020. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Hilol nashr.

Clark, E. V. (2009). First language acquisition. Cambridge University Press.

II.Nyman, C. (2009). Oral Language Competence and Literacy Acquisition. (Doctoral dissertation)https://www.nmu.edu/sites/DrupalEducation/files/UserFiles/Files/PreDrupal/SiteSections/Students/GradPapers/Projects/Nyman_Chris_MP.pdf

III. Pierce, L.V. (1989). Teaching Strategies for Developing Oral Language Skills. In A Volume IV. Selected Articles from the English Teaching Forum 1984-1988. 1-7.

Washington DC: United States Information Agency, English Language Programs Division, Bureau of Educational and Cultural Affairs.